

BOSHLANG'ICH SINFLARDA INTERFAOL METODLAR VA ULARDAN DARS JARAYONIDA FOYDALANISH AHAMIYATI

*Tursunova Umida Akramovna
Qurbanova O'g'iloy Islomovna
Ibodullayeva Shaxnoza Ilhom qizi
Murtazoyeva Gulola Toshevna
Rahimova Madina Davronovna*

*Buxoro viloyati Kogon tumanidagi 10-umumiyl o'rta ta'lim muktabning
Boshlang'ich sinf o'qituvchilari*

Annotatsiya: Interfaol metodlardan foydalanish bugungi kunning dolzarb mavzusiligi, bilimlarni mustahkamlash, guruhlarda ishlash, o'quvchilarning bilimini mustahkamlash va baholash.

Kalit so'zlar: Interfaol metodlar, bilimlar, ko'nikma, "Fikriy hujum", "Yalpi fikriy hujum", "6x6", "Qora quti" metodi, "Zinama-zina", "Zig-zag" "Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi, ...) ortiqcha metodi, "3/ 3" ("4/4", "5/5", ...) metodi, "Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash" metodlari.

Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi. Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'nii o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarlarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Ma'lumki, ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida interfaol metodlar va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish kundan-kunga ortib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilar faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish esa ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topish, mustaqil

o'rganish va fikrlash, tahlil qilish, hatto yakuniy xulosalarni ham o'zlarini keltirib chiqarishga o'rnatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxs rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.

Zamonaviy ta'limga tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda o'quvchilarining o'quv va ijodiy faoliyklarini oshiruvchi hamda ta'limga tarbiya jarayonining samaradorligini kafolatlovchi pedagogik texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritiladi. Biz quyidagi interfaol metodlardan foydalanishimiz mumkin.

"Fikriy hujum" metodi

Mazkur metod o'quvchilarining mashg'ulotlar jarayonidagi faoliyklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inertsiyasidan ozod etish, muayyan mazvu yuzasidan rang- barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarini hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rganish uchun xizmat qiladi. "Fikriy hujum" metodidan foydalanish chog'ida o'quvchilarining soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir. Ushbu metodga asoslangan mashg'ulot bir saotga qadar tashkil etilishi mumkin.

"Yalpi fikriy hujum" metodi

Metod o'quvchilar tomonidan yangi g'oyalarning o'rtaga tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har bir 5 yoki 6 nafar o'quvchilarini o'z ichiga olgan guruhlarga 15 daqiqa ichida ijodiy hal etilishi lozim bo'lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijodiy hal etilgach, bu haqida guruh a'zolaridan biri axborot beradi. Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o'qituvchi va boshqa guruhlar a'zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg'ulot yakunida o'qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarining yechimlari orasida eng yaxshi va o'ziga xos deb topilgan javoblarni e'lon qiladi. Mashg'ulot jarayonida guruhlar a'zolarining faoliyatlarini ularning ishtiroklari darajasiga ko'ra baholab boriladi.

Shuningdek yuqoridaqilardan tashqari yana ko'plab interfaol metodlar bor. Jumladan, "Fikrlarning shiddatli hujumi" metodi, "6x6x6" metodi, "Aqliy hujum" metodi, "Klaster" metodi, "Qarorlar shajerasi" metodi, "Qora quti" metodi, "Beshinchisi (oltinchisi, yettinchisi, ...) ortiqcha metodi, "3/3" ("4/4", "5/5", ...) metodi, "Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishslash" metodi, "Zig-zag" strategiyasi (metodi), "Zinama- zina" metodi va boshqa ko'plab

metodlar bor. Ulardan har birini o'qituvchi pedagog har bir fanda unumli foydalansa, uning darsi o'z maqsadiga erishadi, natijasi ham yuqori bo'ladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Tolipov O'.Q., Usmanboyeva M. Pedagogik texnologiya: nazariya va amaliyot. Monografiya. Toshkent: "Fan". 2005.
2. Farsaxonova D. Zamonaviy axloqiy tarbiyaning muhim jihatlari // Boshlang`ich ta'lim, 2009, 6-son.
3. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O`zbek xalq og`zaki poetik ijodi.- Toshkent: "O`qituvchi", 1990.
4. Jabborov Sh. Xalq og`zaki ijodidan foydalanish// Boshlang`ich ta'lim, 2011, 2-son.